5C	Uchlamchi, kechki yashirin va aniqlanmagan yashirin zaxmni davolashda penitsillinga allergik sezuvchanligi bor bemorlarga tavsiya etiladi: Seftriakson 1,0 g dan sutkasiga 1 mahal m/o 20 sutka va 2 xaftadan keyin ikkinchi davo kursi xuddi shu dozada 10 sutka davomida. yoki Doksisiklin 0,1 g dan sutkasiga 2 peroral 28 sutka, 2 xaftadan keyin ikkinchi davo xuddi shu dozada 14 sutka davomida. yoki Eritromitsin 0,5 g dan sutkasiga 4 peroral 28 sutka, 2 xaftadan keyin ikkinchi davo xuddi shu sxemada 14 sutka davomida. yoki Oksatsillin yoki ampitsillin 1 mln. TDdan sutkasiga 4 mahal (har 6 soatda) m/o 28 sutka davomida, 2 xaftadan keyin ikkinchi davo xuddi shu sxemada 14 sutka davomida.

Zaxmning kechki shakllarini zaxira peroral antibiotiklar bilan davolash samarasi parenteralga nisbatan pastdir va ko‘pincha serologik rezistentlik xolati bilan yakunlanadi. Tabletka preparatlarini faqatgina parenteral preparatlarning barchasiga qarshi ko‘rsatma mavjud bo‘lgandagina tayinlash mumkin.

https://gamaleya.org/about/elektronnaya-biblioteka/otdelnye-izdaniya/1219/

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/26042815/

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/25348878/

https://medj.rucml.ru/journal/45562d564553544e494b44562d41525449434c452d313230

https://www.dermatology.ru/ru/collections/prichiny-razvitiya-serorezistentnosti-pri-sifilise

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/22080265/

https://www.elibrary.ru/item.asp?edn=sfchdj

5C	Kattalarda erta visseral zaxmni davolashda penitsillin tavsiya etiladi: – Benzilpenitsillin (benzilpenitsillin natriyli tuzi) 1 mln. TBdan har 4 soatda (sutkasiga 6 mahal) m/o 28 sutka davomida. – Benzilpenitsillin (benzilpenitsillin novokainli tuzi) 600 000 TB sutkasiga 2 mahal m/o 28 sutka davomida.

5C	Kattalarda kechki visseral (kardiovaskulyar zaxm ham shu jumladan) zaxmni davolashda penitsillin tavsiya etiladi: — Benzilpenitsillin (benzilpenitsillin natriyli tuzi) 1 mln. TBdan har 4 soatda (sutkasiga 6 mahal) m/o 28 kun davomida, 2 xaftadan so‘ng – ikkinchi davo kursi benzilpenitsillin bilan shu dozada 14 sutka davomida. yoki

		— Benzilpenitsillin (benzilpenitsillin novokainli tuzi) 600 000 TBdn sutkasiga 2 mahal m/o 28 kun davmida, 2 xaftadan so‘ng – ikkinchi davo kursi benzilpenitsillin bilan shu dozada 14 sutka davomida.

4C	Kattalarda erta va kechki visseral zaxmni davolashda penitsillinga allergik sezuvchanligi bor bemorlarga tavsiya etiladi:	— Seftriakson 1,0 g dan sutkasiga 1 mahal m/o 20 sutka davomida va ikkinchi davo kursi shu dozada 10 sutka davomida. yoki Doksisiklin 0,1 g dan sutkasiga 2 mahal peroral 28 sutka davomida, ikkinchi davo kursi shu dozada 14 sutka davomida. yoki — Eritromitsin 0,5 g dan sutkasiga 4 mahal peroral 28 sutka davomida, ikkinchi davo kursi shu dozada 14 sutka davomida. yoki — Oksatsillin yoki ampitsillin 1 mln. ED sutkasiga 4 mahal (har 6 soatda) m/o 28 sutka, ikkinchi davo kursi bilan shu dozada 14 sutka davomida.

Zaxmning kechki shakllarini zaxira peroral antibiotiklar bilan davolash samarasi parenteralga nisbatan pastdir va ko‘pincha serologik rezistentlik xolati bilan yakunlanadi. Tabletka preparatlarini faqatgina parenteral preparatlarning barchasiga qarshi ko‘rsatma mavjud bo‘lgandagina tayinlash mumkin.
Kechki kardiovaskulyar zaxmli bemorlarni davolash keng spektrli antibiotiklar bilan 2 xaftalik tayorgarlik bilan boshlanadi: doksisiklin 0,1 g 2 mahal kuniga, tetrasiklin yoki Eritromitsin** 0,5 g 4 mahal kuniga.

Neyrozaxmni davolash

Ko‘ruv va eshituv a'zolari zaralangan zaxmli bemorlarni davolash neyrozaxm (erta yoki kechki) ni davolash sxemasi bo‘yicha amalga oshiriladi, bunda likvorologik tekshiruv natijalari poylab o‘tirilmaydi. Chunki sezgi a'zolari shikastlanganda likvor patologikdan farqli o‘laroq meyoriy ko‘rsatkilarda ham bo‘lishi mumkin.

https://gamaleya.org/about/elektronnaya-biblioteka/otdelnye-izdaniya/1219/

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/26042815/

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/25348878/

https://medj.rucml.ru/journal/45562d564553544e494b44562d41525449434c452d313230

https://www.dermatology.ru/ru/collections/prichiny-razvitiya-serorezistentnosti-pri-sifilise

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/22080265/

https://www.elibrary.ru/item.asp?edn=sfchdj

https://www.mediasphera.ru/issues/klinicheskaya-dermatologiya-i-venerologiya/2011/1/031997-28492011111

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/27795370/

5C	Neyrozaxmli bemorlarni davolashda tavsiya etiladi: Benzilpenitsillin (benzilpenitsillin natriyli tuzi) 12 mln. TBdan sutkasiga 2 mahal v/i tomchilab 20 sutka davomida. Preparatning bir martalik dozasini 400 ml natriy xloridning izotonik eritmasida eritiladi va v/i 1,5-2 soat mobaynida yuboriladi. Eritmani tayyorlagandan keyin darhol ishlatish lozim. yoki Benzilpenitsillin (benzilpenitsillin natriyli tuzi) 4 mln. TBdan sutkasiga 6 mahal v/i 20 sutka davomida. Preparatning bir martalik dozasini 10 ml natriy xloridning izotonik eritmasida eritiladi va v/i astalik bilan 3-5 daqiqa davomida bilak venasiga yuboriladi.

5C	Neyrozaxmli bemorlarni davolashda penitsillin preparatiga allergik sezuvchanlik aniqlanganda tavsiya etiladi: Seftriakson 2,0 g dan sutkasiga 1 mahal v/i 20 sutka davomida, og‘ir holatlarda (sifilitik meningoensefalit, o‘tkir generallashgan meningit) preparatning sutkalik dozasini 4 g gacha ko‘tarish mumkin. yoki Doksisiklin 0,1 g sutkasiga 2 mahal peroral 28 sutka davomida, 2 xaftadan so‘ng xuddi shu sxema bo‘yicha davo kursi qaytariladi 14 kun davomida. yoki Eritromitsin 0,5 g sutkasiga 4 mahal peroral 28 sutka davomida, 2 xaftadan so‘ng xuddi shu sxema bo‘yicha davo kursi qaytariladi 14 kun davomida yoki Oksatsillin yoki ampitsillin 1 mln. TBdan sutkasiga 4 mahal (har 6 soatda) m/o 28 sutka davomida, 2 xaftadan so‘ng xuddi shu sxema bo‘yicha davo kursi qaytariladi 14 kun davomida

Zo‘rayish reaksiyasini oldini olish uchun (nevrologik simptomatika paydo bo‘lishi yoki kuchayishi) penitsillinterapiyaning birinchi 3 kunida tushiruvchi sxema bilan prednizolon berish tavsiya etiladi 90–60–30 mg (ertalab 1 mahal).

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/27795370/

https://yandex.ru/search/?text=29.+Myles+TD%2C+Elkam+G%2C+Park-Hwang%2C+et+al.+The+Jarisch-Herxheimer+reaction+and+fetal+monitoring+changes+in+pregnant+women+treated+for+syphilis.Obstet+Gynecol+1998%3B+92%3A+859-864.&clid=2270455&win=475&lr=10335&msp=1

5C	Neyrozaxmning kechki shaklini davolashda kattalarda tavsiya etiladi: Benzilpenitsillin (benzilpenitsillin natriyli tuzi) 12 mln. TBdan sutkasiga 2 v/i tomchilab 20 sutka davomida. Preparatning bir martalik dozasini natriy xlorid izotonik eritmasining 400 ml

	eritiladi va astalik bilan 1,5-2 soat mobaynida yuboriladi. Eritma tayyorlanishi bilan darhol ishlatilishi lozim. 2 xaftadan so‘ng xuddi shu sxema bo‘yicha davo kursi qaytariladi Benzilpenitsillin (benzilpenitsillin natriyli tuzi) 4 mln TBdan sutkasiga 6 mahal v/i 20 sutka davomida. Preparatning bir martalik dozasini natriy xlorid izotonik eritmasining 10 ml eritiladi va astalik bilan 5-6 daqiqa mobaynida bilak venasiga yuboriladi. 2 xaftadan so‘ng xuddi shu sxema bo‘yicha davo kursi qaytariladi

Bemor antibiotikoterapiya bilan parallel ravishda oftalmolog yoki otorinolaringolog nazorati ostida simptomatik davoni ham olishi lozim. Bu bemorlar ustidan nazorat davo tugaganidan so‘ng: 6 oy, 1 yil va hisobdan yechish davrida olib boriladi.

5C	Kechki neyrozaxmli bemorlarni davolashda penitsillin preparatiga allergik sezuvchanlik aniqlanganda tavsiya etiladi: Seftriakson 2,0 g dan sutkasiga 1 mahal v/i 20 sutka davomida, og‘ir xolatlarda (sifilitik meningoensefalit, o‘tkir generallashgan meningit) preparatning sutkalik dozasini 4 g gacha oshirish mumkin. Bu davo kursini 2 marta 2 xafta interval bilan o‘tkaziladi. yoki Doksisiklin 0,1 g sutkasiga 2 mahal peroral 28 sutka davomida, 2 xaftadan so‘ng xuddi shu sxema bo‘yicha davo kursi qaytariladi 14 kun davomida yoki Eritromitsin 0,5 g sutkasiga 4 mahal peroral 28 sutka davomida, 2 xaftadan so‘ng xuddi shu sxema bo‘yicha davo kursi qaytariladi 14 kun davomida yoki Oksatsillin yoki ampitsillin 1 mln. TBdan sutkasiga 4 mahal (har 6 soatda) m/o 28 sutka davomida, 2 xaftadan so‘ng xuddi shu sxema bo‘yicha davo kursi qaytariladi 14 kun davomida

Sifilisning kech shakllari bilan og'rigan bemorlarni og'iz orqali zahiraviy antibiotiklar bilan davolash parenteral preparatlar bilan davolashdan ko'ra samarasiz va ko'pincha serologik rezistentlikka olib keladi. Tabletkali preparatlar faqat parenteral qo'llaniladigan barcha antibiotiklarga toqat qilmasa, buyurilishi mumkin.

Homilador ayollarda sifilisni davolash.

https://gamaleya.org/about/elektronnaya-biblioteka/otdelnye-izdaniya/1219/

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/26042815/

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/25348878/

https://medj.rucml.ru/journal/45562d564553544e494b44562d41525449434c452d313230

https://www.dermatology.ru/ru/collections/prichiny-razvitiya-serorezistentnosti-pri-sifilise

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/22080265/

https://www.elibrary.ru/item.asp?edn=sfchdj

5C	Xomiladorlarda gestatsiya muddatidan qat'iy nazar zaxmni davolashda benzilpenitsillin (benzilpenitsillin natriyli tuzi yoki benzilpenitsillin novokainli tuzi) tavsiya etiladi, davolash sxemasi yuqorida taklif etilgan ko‘rsatmalardan birida xuddi xomilador emas kabi olib boriladi.

Hozirda zaxmni davolashda samarali va qisqa muddatli davo turlari ishlab chiqilgani tufayli xomiladorlikni to‘xtatishga ko‘rsatma qolmagan. Xomilani saqlab qolish yoki to‘xtatishni onaning o‘zi xal qiladi. Adekvat davolashni esa shifokorning vazifasiga kiradi (davo xomiladorlikning 32 xaftasigacha o‘tkazilishi lozim va bunda benzilpenitsillin (benzilpenitsillin natriyli tuzi yoki benzilpenitsillin novokainli tuzi), polisintetik penitsillinlar yoki seftriaksonlardan foydalaniladi) va xomiladorlarga ruxiy yordam ko‘rsatish lozim.
https://vestnikdv.ru/jour/article/view/7

https://yandex.ru/search/?text=31.+Wendel+Jr.%2C+Sheffield+J.%2C+Hollier+L.%2C+Hill+J.%2C+Ramsey+P.%2C+Sánchez+P.+Treatment+of+Syphilis+in+Pregnancy+and+Prevention+of+Congenital+Syphilis.+Clin+Infect+Dis.+2002%3B+35%3A+200-209.&clid=2270455&win=475&lr=10335

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/16041252/

Tug‘ma zaxmning oldini olish maqsadida profilaktik davo:
a) xomilador bo‘lguncha zaxmdan davolangan, ammo notreponem serologik testlarda musbat natija saqlanib qolsa.
b) xomiladorlik davrida maxsus davoni olgan ayollarga.
https://yandex.ru/search/?text=31.+Wendel+Jr.%2C+Sheffield+J.%2C+Hollier+L.%2C+Hill+J.%2C+Ramsey+P.%2C+Sánchez+P.+Treatment+of+Syphilis+in+Pregnancy+and+Prevention+of+Congenital+Syphilis.+Clin+Infect+Dis.+2002%3B+35%3A+200-209.&clid=2270455&win=475&lr=10335

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/16041252/

- **Xomiladorlarga profilaktik davo** 20 xafta davrdan boshlab o‘tkazilishi lozim, ammo kech boshlangan maxsus davodan, to‘g‘ridan – to‘g‘ri profilaktik davo ulanib ketadi. Preparatlar, bir martalik dozalar va ularni sutkalik soni xomiladorlik yo‘ligi davridagi sxema bo‘yicha odatdagidek olib boriladi. Profilaktik davo davomiyligi 10 kun, lekin agarda maxsus davo to‘liq olib borilmaganligi to‘g‘risida ma'lumotlar bo‘lsa davo muddati 20 kunni tashkil etadi (qo‘shimcha sifatida).
https://vestnikdv.ru/jour/article/view/7

https://yandex.ru/search/?text=31.+Wendel+Jr.%2C+Sheffield+J.%2C+Hollier+L.%2C+Hill+J.%2C+Ramsey+P.%2C+Sánchez+P.+Treatment+of+Syphilis+in+Pregnancy+and+Prevention+of+Congenital+Syphilis.+Clin+Infect+Dis.+2002%3B+35%3A+200-209.&clid=2270455&win=475&lr=10335

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/16041252/

- Agarda xomiladorda zaxmning shakli “kechki yoki kechki/ertaligi aniqlanmagan” shakllari aniqlanganda ikkinchi maxsus davo kursi o‘tkazish tavsiya etiladi, bu davo 20 xafta va undan ortiq xomiladorlik muddatida o‘tkaziladi va bu profilaktik davo ham xisoblanadi. Xomiladorga maxsus va profilaktik davoni o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilganda tug‘ruq jarayoni oddiy tug‘ruqxonalarda amalga oshiriladi. Onasi xomiladorlik davrida zaxmga qarshi maxsus va profilaktik davoni to‘liq olgandan so‘ng xech qanday zaxm belgilarisiz tug‘ilgan chaqaloqqa xech qanday davo tavsiya etilmaydi.
https://vestnikdv.ru/jour/article/view/7

https://yandex.ru/search/?text=31.+Wendel+Jr.%2C+Sheffield+J.%2C+Hollier+L.%2C+Hill+J.%2C+Ramsey+P.%2C+Sánchez+P.+Treatment+of+Syphilis+in+Pregnancy+and+Prevention+of+Congenital+Syphilis.+Clin+Infect+Dis.+2002%3B+35%3A+200-209.&clid=2270455&win=475&lr=10335

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/16041252/

5C	Penitsillin (jumladan polusintetik penitsillin) va seftriaksonga, tetrasiklin qatorga kuzatilgan xomiladorlarga, Eritromitsin tavsiya etiladi. Ammo Eritromitsin platsentar to‘siqdan o‘tmaganligi tufayli bolani tug‘ilganidan so‘ng penitsillin bilan erta tug‘ma zaxm sxemasi bo‘yicha davolanadi.

https://vestnikdv.ru/jour/article/view/7

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/4700555/

https://diseases.medelement.com/disease/nasionalniy-klinicheskiy-protokol-po-vedeniyu-bolnix-s-rannimi-formami-sifilisa-kp-uzbekistan-2021/17527

Tug‘ma zaxm bemorlarini davolash

https://gamaleya.org/about/elektronnaya-biblioteka/otdelnye-izdaniya/1219/

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/26042815/

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/25348878/

https://medj.rucml.ru/journal/45562d564553544e494b44562d41525449434c452d313230

https://www.dermatology.ru/ru/collections/prichiny-razvitiya-serorezistentnosti-pri-sifilise

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/22080265/

https://www.elibrary.ru/item.asp?edn=sfchdj

5C	Erta tug‘ma zaxmli bolalarni maxsus davolashda quyidagi davo sxemalaridan **biri tavsiya etiladi:** benzilpenitsillin (benzilpenitsillin natriyli tuzi) 1 oygacha bolalar – 100 000. TB kg/sutka, bu doza 4 in'eksiyaga bo‘linadi (har 6 soatda), m/o; 1 oydan 6 oygacha bolalar – 100 000 TB kg sutka, bu doza 4 in'eksiyaga bo‘linadi (har 6 soatda), m/o; 6 oydan 12 oygacha – 75 000 TB kg/sutka m/o; 1 yoshdan katta bolalar – 50 000 TB kg/sutka m/o Davo davomiyligi bolalarda - 28 sutka – bu xolat manifest kechish, erta tug‘ma zaxm va likvorda serologik tasdiqlangan neyrozaxmga tavsiya etiladi. benzilpenitsillin (benzilpenitsillin novokainli tuzi) 50 000 TB kg/sutka, m/o, buni 2 ta in'eksiyaga bo‘linadi (har 12 soatda) 28 sutka davomida, bu xolat manifest kechish, erta tug‘ma zaxm va likvorda serologik tasdiqlangan neyrozaxmga tavsiya etiladi.

Penitsillinga allergik xolatlar kuzatilganda zahira preparatlardan foydalaniladi:

– seftriakson bolalarga 2 oylik davrigacha 50 mg/kg/sutka 2 ta yuborishda, 2 oydan 2 yoshgacha –80 mg/kg/sutka 2 ta yuborishda. Davo davomiyligi – 28 sutka, bu xolat manifest kechish, erta tug‘ma zaxm va likvorda serologik tasdiqlangan neyrozaxmga tavsiya etiladi.
yoki
– ampitsillin 100 000 TBdan kg/sutka 2 mahal, xayotning 1 - 8 kuni, 3 mahal sutka – xayotning 9 – 30, 4 mahal sutka – 1 oydan katta.
Davo davomiyligi – 28 sutka bu xolat manifest kechish, erta tug‘ma zaxm va likvorda serologik tasdiqlangan neyrozaxmga tavsiya etiladi.

5C	Kechki tug‘ma zaxmli bolalarni maxsus davolashda quyidagi davo sxemalaridan biri tavsiya etiladi: benzilpenitsillin (benzilpenitsillin natriyli tuzi) 50 000 TB kg/sutka, 6 in'eksiyaga bo‘linadi (har 4 saotda) m/o 28 sutka davomida; 2 xaftadan so‘ng benzilpenitsillin (benzilpenitsillin natriyli tuzi) bilan xuddi shu sxema bo‘yicha davo kursi qaytariladi 14 kun davomida yoki benzilpenitsillin (benzilpenitsillin novokainli tuzi) 50 000 TB kg/sutka, 2 in'eksiyaga bo‘linadi (har 12 soatda) m/o 28 sutka davomida; 2 xaftadan so‘ng benzilpenitsillin (benzilpenitsillin novokainli tuzi) bilan xuddi shu sxema bo‘yicha davo kursi qaytariladi 14 kun davomida

5C	Bolalarda penitsillinga allergik sezuvchanlik kuzatilganda **quyidagilar tavsiya etiladi:** seftriakson**: — 2 yoshdan 12 yoshgacha 80 mg/kg/sutka dozada, 2 yuborishda, — 12 yoshdan katta bolalarga –1-2 g/sutka.

Kechki tug‘ma zaxm yoki manifest kechishda birinchi davo kursi – 28 sutka; 2 xaftadan keyin seftriakson bilan analogik dozada 14 sutkani tashkil etadi.
Bolalarda orttirilgan zaxmni davolash kattalarni davolash sxemalari bo‘yicha tashxis shakliga qarab olib boriladi, bunda yoshdan kelib antibakterial preparatlarning dozasi belgilanadi, lekin bu yerda quyidagilarni hisobga olish lozim, ya'ni bitsillinlar 2 yoshgacha bo‘lganlarga mumkin emas, tetrasiklinlar esa – 8 yoshgacha mumkin emas. Bolalarni davolashda penitsillin preparatining dozasi tana og‘irligiga nisbatan belgilanadi: 6 oygacha bo‘lganlarga penitsillinning natrili tuzi 100 000 TB kg/sutka, 6 oydan kattalarga –75 000 TB kg/sutka hisobida va 1 yoshdan kattalarga –50 000 TB kg/sutka hisobida olib boriladi.
Penitsillin novokainli tuzining sutkalik dozasi va dyurant preparatlarning bir martalik dozasini 50 000 TB/kg hisobida olib boriladi.
Natriy tuzli penitsillin uchun sutkalik doza 6 ga bo‘linadi va novokainli tuzi uchun - 2 ga bo‘linadi.
Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, chaqaloqlar va oylik bolalalarda siydik tanosil tizimi anatomik tuzilishining o‘ziga xosligini hisobga olib penitsillin in'eksiya sonini 4 mahal/sutka ga tushirsa bo‘ladi. Oqish treponemalarning boshlang‘ich in'eksiyalarda yoppasiga nobud bo‘lishi va ulardan toksik reaksiyaning (Gerksgeymer–Yarish–Lukashevich zo‘rayish reaksiyasi) organizmga toksik ta'sirini oldini olish maqsadida penitsillinning bir martalik dozasi 5000 TBdan oshmasligi kerak. Birinchi sutkada har bir penitsillin in'eksiyasidan so‘ng bolaning termometriyasi va somatik xolati nazorat qilib boriladi.

Preventiv davo 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarning hammasiga tavsiya etiladi. Kattaroq yoshdagi bolalarga davo sxemasi har bir bolaga individual yondoshiladi, bunda katta kontaktda bo‘lgan sherikda zaxmning shakli, toshmalar lokalizasiyasi, katta va bola o‘rtasida kontaktning qanchalik darajadaligi. Bunday bolalarga preventiv antibakterial davo sxemasi va dozasi kattalarniki bilan bir xilda bo‘ladi.
Chaqaloqlarga profilaktik davoni xomiladorlik davrida zaxmga qarshi davolanmagan yoki noadekvat davo olgan yoki maxsus davoni xomiladorlikning 32 xaftasidan keyin boshlagan yoki an'anaviy davoni o‘z xolicha o‘zgartirib olgan onalardan tug‘ilgan, lekin zaxm klinik belgilari kuzatilmaganlarga o‘tkaziladi, bundan tashqari xomiladorlikda maxsus davoni olgan, ammo profilaktik davoni olmagan onalardan tug‘ilganlarga o‘tkaziladi. Preparatlar, bir martalik dozasi va yuborish soni odatdagidek maxsus davo bilan bir xil olib boriladi.
Xomiladorlik davrida zaxmga qarshi noadekvat ko‘rsatma bo‘lganda profilaktik davo olmagan yoki davo olgan onadan yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga davo davomiyligi 14 sutka, davolanmagan zaxmli onadan yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga – 28 sutka.

4C	Davodan samara kuzatilmasa, reinfeksiya xaolatini tekshirish lozim va qo‘shimcha davo tavsiya etiladi.

https://gamaleya.org/about/elektronnaya-biblioteka/otdelnye-izdaniya/1219/

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/26042815/

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/25348878/

https://medj.rucml.ru/journal/45562d564553544e494b44562d41525449434c452d313230

https://www.dermatology.ru/ru/collections/prichiny-razvitiya-serorezistentnosti-pri-sifilise

https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/22080265/

https://www.elibrary.ru/item.asp?edn=sfchdj

Reinfeksiyani diagnostika qilishda mezonlar kompleksi mavjud bo‘lib, ularning birinchi to‘rttasi majburiydir:

1. birlamchi yuqtirish xolati tibbiy xujjat bilan tasdiqlangan;
2. birlamchi yuqtirilgan zaxmga nisbatan to‘liq-to‘kis davo o‘tkazilgan va bu tibbiy xujjat bilan tasdiqlangan;
3. birlamchi davo davrida toshmalar o‘z vaqtida qaytib yo‘qolgan (agar mavjud bo‘lgan bo‘lsa);
4. birlamchi kasallikda davodan so‘ng 12 oy mobaynida notreponem (MPR va uning analoglari) testlar titri kamida to‘rt marotaba pasaygan, pozitivlik pasaygan yoki negativasiya yuz bergan;
5. zaxm toshmalari (agar mavjud bo‘lsa) vaytadan toshganda va ularning ajralmasidan qorong‘u maydonda mikroskopiya o‘tkazilganda Treponema pallidum aniqlanishi;
6. ilgari kamida to‘rt marotaba pasaygan NTT testlarda qaytadan musbat natijalar paydo bo‘lsa va oldingidan nisbatan ular titri ko‘tarila boshlasa;
7. IgM-IFA yoki IgM-IB usullarda antitreponem IgM-antitelolar aniqlansa;
8. Zaxmning erta shakli mavjud bo‘lgan yangi kasallik manbai aniqlanganda.

5S	Zaxmga qarshi maxsus davodan samara kuzatilmaganda bemorlarga qo‘shimcha davo **tavsiya etiladi**. Reinfeksiya, neyrozaxm va ichki a'zolar spesifikasi mavjud bo‘lgan zaxm shakllari bundan **mustasno**. Qo‘shimcha davo, odatda quyidagi preparatlardan biri bilan olib boriladi:

	benzilpenitsillin (benzilpenitsillin natriyli tuzi) 12 mln. TBdan sutkasiga 2 mahal v/i tomchilab 20 sutka davomida. yoki benzilpenitsillin (benzilpenitsillin novokainli tuzi) 1 mln. TBdan sutkasiga 6 mahal (har 4 soatda) m/o 28 sutka davomida. yoki seftriakson** 1,0 g dan sutkasiga 2 mahal m/o 20 sutka davomida.

Qo‘shimcha davo quyidagi xollarda tayinlanadi:
to‘liq davodan so‘ng bir yildan so‘ng RMP/ RPR da titr to‘rt baravar pasaymasa;
to‘liq davodan so‘ng 1,5 yildan so‘ng zaxmning erta shakllarida RMP/ RPR da titr pasayshi/pozitivlik darajasida pasayishida tendensiya kuzatilmasa;
to‘liq davodan so‘ng 2 yil o‘tgach RMP/ RPR da zaxmning erta shakllarida to‘liq negativasiya kuzatilmasa;
to‘liq davodan 6 oy o‘tgach RMP/ RPR da erta tug‘ma zaxmda titr pasayishi to‘rt baravar pasaymasa;
klinik yoki serologik retsidiv xolatlarida.

Qo‘shimcha davodan oldin bemorni ixtisosli shifokorlar (dermatovenerolog, oftalmolog, nevrolog, terapevt, otorinolaringolog) ko‘rikdan o‘tkazishi, nevrologik simptomatika bo‘lmasa ham orqa miya suyuqligini tekshirish, exokardiografiya (Exo-KG) va elektrokardiografiya (EKG) va jinsiy sherikni klinik-serologik tekshiruvdan o‘tkazish lozim. Asab tizimi yoki ichki a'zolarda patologiya aniqlanadigan bo‘lsa neyro- yoki visseral zaxm tashxisi qo‘yiladi va ularni davolash usullari bo‘yicha maxsus davo o‘tkaziladi.
Bolalarni qo‘shimcha davolash, antibakterial preparatning yoshga bog‘liq dozasi tanlangan xolda, kattalarniki bilan bir olib boriladi.
Neyrozaxmni qo‘shimcha davolash uchun ko‘rsatmalar:
– klinik belgilarning kuchayishi yoki residivi;
– orqa miya suyuqligida 6 oy ichida pleositoz pasaymasa va 2 yil ichida meyoriga tushmasa yoki, yanayam oshsa;
– orqa miya suyuqligida 1 yil ichida pozitilik RMP/ RPR da pasaymasa;
– orqa miya suyuqligida 2 yil ichida oqsil miqdori sezilarli pasaymasa.
Qo‘shimcha davo neyrozaxmni davolash metodikasi bo‘yicha olib boriladi.
Orqa miya suyuqligida oqsil miqdori sitoz va serologik reaksiyalarga nisbatan sekinroq pasayadi va ba'zi xollarda buning uchun 2 yilgacha muddat talab etiladi. Yuqori miqdorda, lekin astalik bilan pasayayotgan oqsil miqdori, sitozning meyordagi ko‘rsatkichlari va serologik test natijalarining manfiy natijalari kuzatilgan xolatlar qo‘shimcha terapiya kursini o‘tkazishga ko‘rsatma bo‘lib xizmat bo‘ladi.

Davodan nojo‘ya ta'sirlar va asoratlar

Bemorlarga davo boshlashdan oldin organizmda kuzatilishi mumkin bo‘lgan reaksiyalar haqida tushuntirish olib borish olib boriladi. Davo olib boriladigan tibbiyot muassasalarida tez tibbiy yordam berish imkoni yaratilgan bo‘lishi lozim.
Ko‘rsatma bo‘lganda antimikotik preparatlar tayinlanadi.

Xirurgik davo

https://www.mediasphera.ru/issues/klinicheskaya-dermatologiya-i-venerologiya/2013/3/031997-2849201336

https://www.mediasphera.ru/issues/kardiologiya-i-serdechno-sosudistaya-khirurgiya/2015/6/491996-63852015065

Zaxmda xirurgik davo xirurgik davo asosiy kasallikda lozim emas, bu davo yo‘nalishi zaxmning asoratlarini (aorta anevrizm, aortal yetishmovchilik klinik tavsiyalarga asosan) davolashda ko‘rsatma bo‘lishi mumkin.

Boshqa davo turi

- Ko‘rsatmaga ko‘ra plazmaferez muolajasi o‘tkaziladi

Davolash natijalarini baholash

5C	Zaxm bilan og‘rigan bemorlarni davolash natijalarini quyidagi talablarga asosan baholash tavsiya etiladi (zaxmni davosi samaradorligining serologik mezonlari): zaxmning erta shakllarin maxsus davodan so‘ng 12 oy mobaynida nospesifik (notreponem tekshiruvlar) serologik reaksiyalar negativasiyasi – yoki antitelo titri 4 va undan ko‘p pasayishi.

RIF, IFA, PGAR ko‘rsatkichlari davodan so‘ng kamdan-kam xollarda manfiyga tushadi. Zaxmni o‘tkazganlarda notreponem testlari manfiy bo‘lib turib, RIF, IFA va PGAR taxlillarining musbat bo‘lib turishi davodagi muvaffaqiyatsizlik deb qaralmaydi.

4C	Neyrozaxmda davolash samaradorligining mezonlari deb sanash mumkin: – davolash tugagandan so‘ng 6 oy mobaynida pleositozning me'yoriga tushishi; – davolash tuggaganidan so‘ng 2 yil mobaynida oqsil darajasi pasayishi yoki me'yor darajaga tushishi; – davolash yakunidan 6-12 oydan so‘ng serebrospinal suyuqlikda notreponem tekshiruvlarda aniqlangan antitelolarning yo‘qolishi. Ba'zi xollarda yuqoridagi antitelolar 1 yildan ortiq muddat saqlanib qolishi mumkin, bunday xollarda bu testlarda pozitivlik darajasi mavjudligini hisobga olinadi; – yangi nevrologik simptomlar yo‘qligi va mavjud bo‘lganlarining ko‘paymasligi.

5C	Quyidagi xollarda zaxmni davolash **muvaffaqiyatsiz hisoblanadi**: klinik belgilarning saqlanib qolishi yoki qaytadan paydo bo‘lishi (klinik residiv), notreponem serologik testlardagi titrlarning 4 va undan ortiq turg‘un oshib ketishi, reinfeksiya xolati tasdiqlanmagan xolatda ilgari manfiylashgan notreponem testlarning qaytadan pozitivlashishi (serologik residiv), zaxmning erta shakllarida zaxmga qarshi maxsus davo o‘tkazilganligiga qaramay 12 oy mobaynida notreponem testlarning turg‘un musbat saqlanib qolishi (serologik rezistentlik).

Agarda zaxmning erta shakllarini maxsus davosida so‘ng 12 oy mobaynida notreponem testlarda sekinlik bilan pozitivlik pasayib borsa (4 martadan kam bo‘lmagan), ammo butunlay negativasiya yuz bermasa, notreponem testlarning sustlashgan negativasiyasi deyiladi. Klinik-serologik

nazoratni bunday bemorlarda 2 yilgacha cho‘zdiriladi va shundan so‘ng qo‘shimcha davoga ehtiyoj bor/yo‘qligi xal qilinadi.

«ZAXM» KASALLIGINI OLDINI OLISh VA REABILITASIYa QILISh BO‘YIChA MILLIY KLINIK PROTOKOL

TOShKENT – 2025

1. Tibbiy reabilitasiya

Belgilanmagan

2. Profilaktik va dispanser nazorat

2.1. Orttirilgan zaxm profilaktikasi

Shaxsiy profilaktika baryer kontraseptiv (prezervativ) usuldan foydalanishdir. Begona shaxs bilan himoyalanmagan jinsiy aloqa ro‘y berganda mustaqil ravishda individual profilaktika vositalaridan foydalanish mumkin (masalan, xlogeksidin).

5C	Zaxm profilaktikasi maqsadida aholi orasida sanitariya-oqartuv ishlarini olib borish; kasallik yuqtirish xavfi bo‘lgan ma'lum guruhlar orasida skrining tekshiruvlar olib borish, bu gurxlar orasida kasallikka aloqador shaxslarga profilaktik davo o‘tkazish va klinik-serologik nazoratga olish tavsiya etiladi.

5C	Zaxmga aloqador shaxslarga quyidagi profilaktik choralar **tavsiya etiladi**: – zaxmning erta shakllari bilan og‘rigan bemorlar bilan jinsiy aloqada bo‘lgan yoki bevosita maishiy kontaktda bo‘lganiga 2 oydan ko‘p vaqt o‘tmagan shaxslarga yuqorida ko‘rsatilgan usullardan biri bilan preventiv davo o‘tkazish lozim. – zaxmning erta shakllari bilan og‘rigan bemorlar bilan jinsiy aloqada bo‘lgan yoki bevosita maishiy kontaktda bo‘lganiga 2 dan 4 oygacha vaqt o‘tgan shaxslarga, 2 oy oralig‘i bilan 2 marta klinik-serologik tekshiruv o‘tkaziladi; agarda aloqadan 4 oydan ko‘p vaqt o‘tgan bo‘lsa bir marta klinik-serologik tekshiruv o‘tkaziladi. – Zaxm bilan og‘rigan bemorning qoni quyilgan retsipientga 3 oydan ko‘p vaqt o‘tmagan bo‘lsa yuqorida tavsiya etilgan birlamchi zaxmni davolash sxemalaridan biri tanlanadi, agarda 3 oydan 6 oygacha vaqt o‘tgan bo‘lsa retsipient ikki marta 2 oy oralig‘i bilan klinik-serologik nazoratda turadi; agarda 6 oydan ziyod davr o‘tgan bo‘lsa bir marta klinik-serologik tekshiruvdan o‘tkaziladi.

2.2. Tug‘ma zaxm profilaktikasi

Tug‘ma zaxm profilaktikasi antenatal va postnatal amalga oshiriladi.
Antenatal profilaktika quyidagilarni o‘z ichiga oladi: sog‘lom insonlar bilan ishlash, xomiladorlarga xomila ichi zararlanishi haqida ma'lumot berish va erta tekshiruvlardan o‘tish lozimligi to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish; uch marotaba serologik tekshiruvlardan o‘tish (ayollar maslahatxonasida, 28–30 xaftalikda va tug‘ruqdan 2–3 xafta oldin); zaxm aniqlanganda – adekvat maxsus va davoni o‘tkazish.
Postnatal profilaktika tug‘ma zaxmni oldini olish maqsadida profilaktik davodir.

3. Klinik-serologik kontrol (nazorat)

5C	Zaxmning erta shakllari bilan jinsiy va maishiy aloqador shaxslarga preventiv davo o‘tkazilganidan so‘ng 3 oydan keyin bir marta klinik-serologik tekshiruvdan o‘tkazish tavsiya etiladi.

5C	Zaxm bilan og‘rigan bemorlarni maxsus davodan so‘ng klinik-serologik kontrol (nazorat) birinchi yili har 3 oyda bir marta, keyingi yillarda har 6 oyda bir marta notreponem testlar bilan o‘tkazish tavsiya etiladi.

5C	Davogacha RMP/ RPR musbat natija kuzatilgan va to‘liq maxsus davoni olgan bemorlar notreponem serologiktestlar negativasiyasigacha tekshiruvlar olib boriladi, so‘ngra keyingi 12 oy mobaynida nazoratda bo‘ladi (bu davrda 2 marta serologik tekshiruvdan o‘tadi).

Bemorda 12 oy mobaynida turg‘un notreponem testlarda negativasiya saqlanib qolsa klinik-serologik kontrol (nazorat) to‘xtatiladi.

5C	Zaxmning kechki shakllari bilan davolangan bemorlarda notreponem testlar ko‘pgina xollarda musbat natijada saqlanib qoladi, ular kamida 5yil davomida klinik-serologik nazoratda turadilar.

Zaxmning kechki shakllari bilan davolangan bemorlarin 5 yildan so‘ng hisobdan chiqarish yoki undan ko‘p nazoratda ushlab turish haqida yechimni individual ravishda amalga oshiriladi, bu xulosani olishda shifokor-nevrolog, shifokor-oftalmolog, shifokor-terapevt, orqa miya suyuqligini tekshirib, exo-KG, EKG natijalari katta ahamiyatga ega.

5C	Neyrozaxm bilan davolangan bemorlar 5 yil davomida klinik-serologik kontrol (nazorat) da turadilar va har 6-12 oyda orqa miya suyuqligini neyrojarroh ishtirokida tekshirish lozim.

Orqa miya suyuqligida patologik o‘zgarishlar saqlanib qoladigan bo‘lsa (notreponem testlar musbat) qo‘shimcha davo kursi o‘tkaziladi. Davodan so‘ng bemorni 5 yildan ortiq nazoratga olish xulosasi shifokor-nevrolog ishtirokida xal qilinadi. Orqa miya suyuqligi tarkibida turg‘un normallashish (1 yil ichida 2 marta likvorda meyordagi ko‘rsatkichlar), qoldiq klinik belgilar kuzatilgan taqdirda ham, serologik nazoratdan yechishga ko‘rsatma bo‘ladi.

5C	Seropozitiv onadan tug‘ilgan, lekin tug‘ma zaxm bilan og‘rimagan bolalar, profilaktik davo olgan/olmaganligidan qat'iy nazar, 1 yil davomida klinik-serologik nazoratda turadilar.

Birinchi tekshiruv 3 oylik davrda pediatr, nevropatolog, okulist, otolaringologlar ishtirokida kompleks klinik-serologik tekshiruvlar o‘tkaziladi. Agarda serologik natijalar manfiy va kasallikning klinik simptomlari kuzatilmasa, tekshiruvni 1 yasharlik davrda hisobdan yechishdan oldin yana bir bor qaytariladi. Ba'zi xollarda tekshiuvni 6-, 9- va 12-oylik davrda o‘tkaziladi.
Zaxmdan maxsus davo olgan bolalar, klinik-serologik nazoratda 3 yil davomida turadilar.

3.1. Klinik-serologik kontrol (nazorat)ni tugatish

Nazorat davri tuguganida to‘liq klinik-serologik tekshiruvlar o‘tkaziladi, jumladan RMP (yoki analogi), PGAR, IFA yoki IXLA, zarur xollarda RIF, IB va shifokor-terapevt/shifokor-pediatr, shifokor-nevrolog, shifokor-oftalmologlar ko‘rigi o‘tkaziladi.
Neyrozaxm, visseral zaxm, kechki zaxm turlari va aniqlanmagan shakllarida klinik- serologik nazoratni tugatish uchun barcha bemorlarga serebrospinal suyuqlikni teshiruvi, Exo-KG, hamda qon biokimyoviy taxlili (jigar fermentlari, bilirubin, kreatinin, lipidlar va b.) o‘tkazilishi lozim.
Bolalar muassasalari, oziq ovqat korxonalarida ishlaydigan xodimlar, zaxmga to‘liq maxsus davoni olib, klinik simptomlar (zaxmning manifest shakllari mavjud bo‘lganda) to‘liq regress bo‘lgandagina ishga qo‘yiladilar.
Zaxmdan davo olgan bolalar to‘liq maxsus davoni olib klinik belgilar yo‘qolganidan keyin bolalar muassasalariga qo‘yiladilar.
Notreponem testlar musabat saqlanib qolgan bemorlarda klinik-serologik nazorat quyidagi shartlarda tugatilishi mumkin:
1) to‘liq maxsus va qo‘shimcha davo o‘tkazilganda;
2) klinik-serologik nazorat 5 yil mobaynida olib borilganda;
3) hisobdan yechishda orqa miya suyuqligi ko‘rsatkichlari meyoriy ko‘rsatkichlarda bo‘lganda;
4) yurak va aortani ultratovush tekshiruvida kardiovaskulyar zaxm belgilari kuzatilmaganda;
5) yondosh mutaxassislar (shifokor-nevrolog, shifokor-oftalmolog, shifokor-otorinolaringolog, shifokor-terapevt/pediatr) ko‘rigida spetsifik patologiya aniqlanmaganda.
Notreponem testlar 5 yil davomida musbat saqlanib qolganda nazorat muddatini 5 yildan ko‘paytirish masalasini shifokor-dermatovenerolog individual xal qiladi.

Адабиётлар рўйхати

1. Национальные клинические протоколы по сифилису. Национальный̆ альянс дерматологов и косметологов // М. 2019. – 81 с.
2. Инфекции, передаваемые половым путем / Под ред. В.А. Аковбяна, В.И. Прохоренкова, Е.В. Соколовского // М., Медиасфера, 2007. – С. 324-337.
3. Красносельских Т.В., Соколовский Е.В. Современные стандарты диагностики сифилиса: сравнение российских и зарубежных клинических рекомендаций (сообщение I). Вестник дерматологии и венерологии, 2015; 2: 11-22.
4. Centers for Disease Control and Prevention. Sexually Transmitted Diseases Treatment Guidelines, 2015; MMWR Recomm Rep 2015; 64 (No. RR-3): 1-138.
5. Janier M., Hegyi V., Dupin N. et al. 2014 European guideline on the management of syphilis. J Eur Acad Dermatol Venereol, 2014; 28 (12): 1581-1593.
6. Ballard R., Hook E.W. III. Syphilis. In: Unemo M., Ballard R., Ison C., Lewis D., Ndowa F., Peeling R., eds. Laboratory diagnosis of sexually transmitted infections, including human immunodeficiency virus. World Health Organization (WHO), Geneva, Switzerland, 2013: 107-129.
7. Красносельских Т.В., Соколовский Е.В. Нейросифилис: нерешенные проблемы и невыученные уроки (часть I). Современные проблемы дерматовенерологии, иммунологии и врачебной косметологии, 2011; 5 (18): 5-11.
8. Красносельских Т.В., Соколовский Е.В. Нейросифилис: нерешенные проблемы и невыученные уроки (часть II). Современные проблемы дерматовенерологии, иммунологии и врачебной косметологии, 2011; 6 (19): 7-11.
9. Дмитриев Г.А., Потекаев Н.Н., Негашева Е.С., Фриго Н.В. ITPA-индекс в клинико-лабораторной диагностике нейросифилиса. Клинич дерматол венерол, 2017; 6: 38-43.
10. Красносельских Т.В., Манашева Е.Б., Гезей М.А. Проблемы диагностики и лечения сифилиса при коинфекции вирусом иммунодефицита человека. ВИЧ-инфекция и иммуносупрессии. 2018; 10 (2): 43-53.
11. Красносельских Т.В., Соколовский Е.В. Нейросифилис на фоне ВИЧ-инфекции. Вестник дерматологии и венерологии, 2015; 2: 49-57.
12. Юлдашев К.А. Состояние спинномозговой жидкости у больных замаҳалными формами сифилиса при однокурсовом методе. Дисс. канд. мед. наук. Москва. 1982.-142 с..
13. Лосева О.К., Чистякова Т.В., Лебедева Г.А., Кисель О.В. Выявление и диагностика кардиоваскулярного сифилиса в Москве. Клинич дерматол венерол, 2013; 3: 38-47.
14. Лосева О.К., Квижинадзе Г.Н., Залевская О.В., Юдакова В.М., Кисель О.В., Шкляров А.М. Клиника, течение и исходы кардиоваскулярного сифилиса (по материалам Московского региона). Кардиология и сердечно-сосудистая хирургия, 2015; 6: 22-25.

15. Красносельских Т.В., Соколовский Е.В. Современные стандарты терапии сифилиса: сравнение российских и зарубежных клинических рекомендаций (сообщение II). Вестник дерматологии и венерологии, 2015; 2: 23-40.

16. Юлдашев К.А. Показатели здоровья у лиц перенесших сифилис. Дисс. доктора мед. наук. Ташкент. 1996. -298 с.

17. Ghanem K.G., Workowski K.A. Management of adult syphilis. Clin Infect Dis, 2011; 53 Suppl 3: S110-S128.

18. Лосева О.К. Современные проблемы лечения сифилитической инфекции. Эффективная фармакотерапия, 2011; 10: 42-45.

19. Корепанова М.В., Коробейникова Э.А., Крюкова О.И. Клиническая эффективность цефтриаксона в терапии ранних форм сифилиса. Клинич дерматол венерол, 2011; 1: 55-58.

20. Лосева О.К., Скопинцева Д.А., Николенко Ю.А. и др. Об эффективности доксициклина при лечении больных ранними формами сифилиса. Вестн дерматол венерол, 2004; 6: 57.

21. Бохонович Д.В., Залевская О.В., Лосева О.К. Анализ качества клинико-серологического контроля после лечения больных сифилисом. Клинич дерматол венерол, 2016; 2: 33-38.

22. Стандарты диагностики и лечения по дерматовенерологии и косметологии. / Под ред. У.Ю.Сабирова и соавт. //Ташкент, 2019. – 554 с..

23. Khamaysi Z. et al. Clinical and imaging findings in patients with neurosyphilis: a study of a cohort and review of the literature //International journal of dermatology. – 2014. – Т. 53. – №. 7. – С. 812-819.

24. Czarnowska-Cubała M. et al. MR findings in neurosyphilis—a literature review with a focus on a practical approach to neuroimaging //Psychiatr Danub. – 2013. – Т. 25. – №. Suppl 2. – С. S153-7.

25. Finley K. H., ROSE A. S., Solomon H. C. Electroencephalographic studies on neurosyphilis //Archives of Neurology & Psychiatry. – 1942. – Т. 47. – №. 5. – С. 718-736.

26. Akovbyan, VA , Kubanova, AA , Toporovsky, LM , Benzylpenicillin benzatine (Extencillin) in the treatment of syphilis: five-year experience (Russian language). Vestnik Dermatologii iVenerologii 1998;4:61–4.

27. Idsøe, O , Guthe, T , Willcox, RR . Penicillin in the treatment of syphilis. The experience of three decades. Bull WHO 1972;47:1–68.

28. Gudjonsson H, Skog E. The effect of prednisolone on the Jarisch-Herxheimer reaction. Acta Dermatol Venereol 1968;48:15-8

29. Myles TD, Elam G, Park-Hwang E, et al. The Jarisch-Herxheimer reaction and fetal monitoring changes in pregnant women treated for syphilis.Obstet Gynecol 1998; 92: 859–864.

30. . Кубанова А.А., Доля О.В. Опыт применения цефтриаксона (роцефин) при сифилисе у беременных и новорожденных, а также у детей с серорезистентностью. Вестн. дерматол. и венерол. 2001; 2: 70-75.

31. Wendel Jr., Sheffield J., Hollier L., Hill J., Ramsey P., Sánchez P. Treatment of Syphilis in Pregnancy and Prevention of Congenital Syphilis. Clin Infect Dis. 2002; 35: 200-209.


32. Zhou P., Gu Z., Xu J.,Wang X., Liao K. A study evaluating ceftriaxoneas a treatment agent for primary and secondary syphilis in pregnancy. Sexually Transmitted Diseases 2005; 32(8):495–8.

33. Philipson A, Sabath LD and Charles D. Transplacental passage of erythromycin and clindamycin. N Engl J Med 1973; 288: 1219–1221.


34. Сифилис: от висмута до экстенциллина (монография для врачей) под редакцией проф. А.Ш.Ваисова. Ташкент. 2012. -244 с.

35. Худайбердиев Н.А. Ампициллин в терапии сифилиса: Дис. ... канд. мед. наук. - М., 1975.


Алгоритмы действий врача




Алгоритм диагностики нейросифилиса у ВИЧ-негативных пациентов



Алгоритм диагностики нейросифилиса у ВИЧ-позитивных пациентов



Tug'ma sifilisga shubha qilingan bolalarni boshqarish algoritmi



* Лечение ББП показано, только если мать не лечилась, лечилась недостаточно; лечение не документировано; лечение было начато за 4 или менее недели до родов; есть данные за реинфекцию или рецидив (увеличение титра НТТ в 4 и более раза)

** Клинический анализ крови + тромбоциты; функции печени исследование ЦСЖ; рентгенограммы длинных трубчатых костей и грудной клетки; нейровизуализационные исследования, обследование органов зрения и слуха

*** Не нуждаются в лечении дети, рожденные женщинами с серорезистентностью со стабильно низкими титрами НТТ (РМП — 1:2 и ниже, РПР — 1:4 и ниже) в течение года после окончания лечения

Zaxmni boshqarish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar

(task shifting)

	Amaliy xamshira	Oilaviy shifokor (bakalavr)	Tor mutaxassis
Shikoyat va anamnez			
Bemordan shikoyatlarni yig‘ish maxoratini namoyishi	+*	+	+
Zaxmga anamnez yig‘ayotganda uning simptomlari haqida bilimlar majmuasi.		+	+
Teri tanosil kasalliklari haqida to‘liq anamnez bilimlari		+	+
Fizikal ko‘rik			
• Umumiy ko‘rik: Bemorning umumiy xolatini baholash (isitma, xolsizlik, quvvatsizlik). Tana haroratini o‘lchash. Regionar limfa tugunlarini tekshirish (kattalashgan, og‘riqli). • Teri va shilliq qoplamlar patologik toshmalar: Toshmalar joylashishi. Toshmalar turi:		+	+
Tashxis qo‘yish			
Tashxis qo‘yish shikoyatlar, anamnez, spetsifik simptomlar va laborator-instrumental tekshiruvlar asosida qo‘yiladi		+	+
Asosiy laborator diagnostika			
Asosiy laborator taxlillar:		+	+
Umumiy qon taxlili		+	+
Notreponem va treponem testlar		+	+
OIV-infeksiyasiga IFA usulida tekshiruv		+	+
Qo‘shimcha laborator diagnostika			
Tasdiqlovchi testlar (6 tadan kamida 2 tasi): RIF, IFA IgG i IgM, RIBT, RPGA, IXA, Immunoblot IgG va IgM			+
Umumiy siydik taxlili			+

Biokimyoviy tekshiruvlar			+
Qo‘shimcha instrumental tekshiruvlar			
EKG, ExoKG, REG			+
Ichki a’zolar UTT			+
Davolash			
Zaxmga qarshi maxsus davo (davolash ruknida ko‘rsatilgan)			+

Profilaktika			
Aholi orasida xayot tarzi va jinsiy tarbiya haqida tushuntirish ishlari olib borish	+	+	+

Asosiy tor mutaxassislar dermatovenerolog.

*Bu vakolatlar tibbiy xamshiralarni tayyorlash bilan amalga oshiriladi.

Zaxmni boshqarish ko‘nikmalari

	Amaliy xamshira	**Oilaviy shifokor (bakalavr)**	**Tor mutaxassis**
Zaxmni tasvirlash			+
Shikoyatlarning simptomatik tavsifi		+	+
Patofiziologik mexanizmlarning tavsifi			+
Etiologiya, simptomlar va tadqiqotlar (asosiy laboratoriya va instrumental tadqiqotlar) asosida zaxm tashxisiga yondashuvni yaratish.			+
Asosiy taxlillar interpretatsiyasi			+
Zaxmni davolashga yondashuvni shakllantirish			+
Sifilis uchun dori-darmonsiz terapiyani tasvirlab bering			+
Zaxmni davolashda ishlatiladigan turli xil dorilarning ta'sir mexanizmi, ko‘rsatmalari va nojo‘ya ta'sirini muhokama qiling.		+	+
Davolash davomida zaxm rivojlanishining patofiziologik mexanizmlarini muhokama qiling.			+

Asosiy tor mutaxassis shifokor-dermatovenerolog.